

PAPER

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARNI O'RGATISH

Yuldasheva Muxtasarxon Ikromjon qizi^{1,*}

^{1,2nd} Qo'qon davlat universiteti texnologik ta'lim yo'nalishi 2- bosqich talabasi

*Yuldasheva3@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada texnologiya atmasi, texnologiya fani qandau kirib kelgani, texnologiya fani darslari o'quv faoliyati turli tashkiliy shakllari haqida ma'lumotlar bor. Bundan tashqari texnologiya darsida texnika, zamonaviy texnologiyalar, amaliy ko'nikmalar, innovatsion yondashuv, ta'lim metodikasi texnologiya darslarida texnika va zamonaviy texnologiyalarni o'rgatishning ahamiyati, maqsadi hamda ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi haqida so'z boradi. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni maktab o'quvchilariga o'rgatish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodlar yoritilgan. Amaliy, ko'rgazmali, loyiha asosidagi, muammoli va interaktiv yondashuvlar orqali texnologiya darslarini qanday qilib samarali va qiziqarli qilish mumkinligi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Key words: Texnologiya darsi, texnika, zamonaviy texnologiyalar, amaliy ko'nikmalar, innovatsion yondashuv, ta'lim metodikasi.

Kirish

Yurtimizda mustaqillik yillarida ta'lim soxasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Dastlabki yillarda "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" to'g'risida qonunlar, ta'lim sohasiga oid bir qator qaror va farmoyishlar qabul qilindi. Ta'limning "Milliy modeli" yaratildi, yangicha dunyoqarash, goya va mafkuralar xilma-xilligiga asoslangani shaxsning ta'lim darajasi va salohiyatini oshirishga, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondoshuv madaniyatiga ega bo'lgan, yangi avlod kadrlarini tayyorlash ta'lim-tarbiya soxasida muhim o'rin to'tadi.

XXI asr bejizga, yuksak rivojlangan texnika va texnologiyalar, axborot, nano va neyro texnologiyalari asri deb atalmaydi. Hozirgi kunda xattoki kundalik hayotimizda qo'llaniladigan maishiy texnikalardan samarali foydalanish uchun ham etarli darajada bilimlarga ega bo'lish zarur. Buday texnika va texnologiyalarni yuqori intellektga ega, yuksak bilimli bo'lgan barkamol avlodgina samarali boshqara oladi.

Asosiy qism

Texnologiya darslari maktabda eng uzoq vaqt o'tiladigan o'quv fanlaridan biri hisoblanadi. Texnologiyaning 3 ta yo'nalishi mavjud bo'lib, bular; Texnologiya va dizayn, Servis xizmati va Qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishlaridir.

Texnologiya (yunoncha "techne" – san'at, mohirlik, hunar va "logos" – fan, ta'lim) birikmasidan hosil bo'lgan. Texnologiya atmasi dastlab ishlab chiqarish sohasida qo'llanilgan bo'lib, unga materiallarga, yarim tayyor mahsulotlarga ishlov berish ularning tarkibini, xususiyatlarini, ko'rinishini, tayyorlanishini, qo'llanish sohasini o'zgartirish yo'llari haqidagi fan sifatida qaralgan.

natija va tahlillar

Texnologiya fanining 5-7-sinflarda o'quvchilarning ijtimoiy-estetik didi va dunyoqarashini kengaytiruvchi yuqoridagi bo'limlari oilaviy hayotda, turmushda zarur bo'lib, o'quvchilarda milliy madaniyat va an'analarga mehr uyg'otadi.

8-9-sinflarda "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati", "Robototexnika asoslari", "Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi", "Ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari", "Qishloq xo'jaligi asoslari" yo'nalishlaridagi darslar o'quvchilarning ijtimoiy dunyoqarashini kengaytirib, kasbiy ta'lim yo'nalishlarini ongli ravishda tanlashlariga yordam beradi.

O'quvchilar 10-11-sinflarda o'qishi davomida qiziqishlari, ota-onasining fikri hamda umumta'lim muassasasi psixologining xulosasiga muvofiq kasb-hunarga tayyorlash markazlarida kasblarga o'qitiladi.

Umumta'lim maktablarida texnologiya fani darslari o'quv faoliyati turli tashkiliy shakllarda kechadi. Texnologiya fanining

tashkiliy shakllari deganda o'quv faoliyati uchun o'quvchilar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari tushuniladi. Texnologiya mashg'ulotlarini tashkil etish shakllariga quyidagilar kiradi

1. Nazariy mashg'ulotlar.
2. Amaliy va amaliy laboratoriya mashqlari
3. Ishlab chiqarish korxonasiga sayohat.
4. Firmalar, xususiy korxonalar bazasida mashg'ulot.

Mashg'ulotlar davomida mavzu bo'yicha kerakli ma'lumotlar berish, mavzu mazmunini yoritishda nazariy mashg'ulotlardan foydalaniladi. Texnologiya mashg'ulotlari davomida nazariy mashg'ulotlar juda kam foydalaniladi. Chunki texnologiya darslarining 80

Nazariy mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga dastur asosida mavzularni ko'rgazmalardan foydalangan holda olib boradi. Ko'rgazmali vositalar sifatida mehnat usullarini plakatlar, sxemalar, jadvallar, namuna buyumlarini, o'quv kinofilmlari, diafilmlar, diapozitivlar, informatika, EHM va hokazolarni namoyish qilish, texnologiya darslarida ko'rgazmali vositalardan to'g'ri foydalanish o'quvchilarning texnik bilimlarini puxta o'zlashtirib olishlariga, ularda mehnat ko'nikmalari va malakalarining hosil bo'lishiga yordam beradi. Ko'rgazmalilik tushunchasi faqat o'z ko'zi bilan ko'rish mumkin bo'lgan vositalarnigina emas balki eshitish, sezish va idrok etishning boshqa turlarini ham o'z ichiga oladi.

O'quvchilarga mehnat usullari va jarayonlarini tushuntirish vaqtida texnologiya o'qituvchisi muayyan mehnat usullarini ko'rsatishda rangli plakatlardan foydalanibgina qolmasdan, balki ish harakatlari va jarayonlarini bajarishlarni o'zi namoyish qilib ko'rsatadi. Bunda u o'quvchilarning e'tiborini ish joyiga gavgani qanday tutish va asboblarni qanday ushlash kerakligi, harakatlarni bir maqsadga qaratish kabilarga jalb qiladi. Lekin ba'zi sababalarga ko'ra texnologiya darslarida ko'rgazmali vositalarga ko'pvaqtni ajratish ham zara qiladi. Chunki o'quvchining bor diqqat e'tibori shu ko'rgazmada bo'ladi. Natijada o'quvchi o'qituvchi gapirayotganlarini eshitmaydi. Masalan, o'qituvchi tomonidan kata plakatga "Krasso'ord" tuzilib keingan bo'lsa, o'qituvchi darsni boshlanishi bilan uni doskaga osib qo'ysa o'quvchining bor diqqat, hayoli shu savollarga javob topish bilan bant bo'lib qoladi. Shuning uchun ko'rgazmali vositalardan foydalanganda bir qator metodik talablarga rioya qilish zarur.

1. Ko'rgazmali qurollar darsdagi o'quv materiali mazmuniga mos kelishi kerak.

2. Darsda foydalaniladigan barcha ko'rgazmali qurollarni birdaniga osib, ko'rsatib qo'yish yaramaydi. Chunki, bu o'quvchilar diqqat e'tiborini chalg'ishiga olib kelishi mumkin.

3. Darsni ko'rgazmali qurollar bilan haddan tashqari to'ldirib yubormaslik kerak.

Ko'rgazmali qurolni ko'rsatish vaqtida texnologiya o'qituvchisi o'quvchilarning bu qurolni idrok etish jarayonini boshqarib borishi lozim.

Amaliy mashg'ulotlar o'qituvchi tomonidan boshqarilib, o'quvchilar tomonidan berilgan topshiriqlar ongli o'zlashtiriladi. O'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishlari, amaliy ishlarni mustaqil bajarishlari hamda o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlar natijalarini yaxshilashga qaratiladi.

Zamonaviy davrda texnologiya fanini o'qitish faqatgina oddiy mehnat faoliyati bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar, texnik tafakkur va hayotga tayyorlovchi bilimlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, maishiy texnikalar – changyutgich, kir yuvish mashinasi, muzlatkich, blender, dazmol kabi vositalardan foydalanishni o'rgatish bugungi kundagi muhim vazifalardan biridir. Bunday darslarni qiziqarli va samarali o'tkazish uchun esa zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish lozim.

Amaliy metod

Bu usul orqali o'quvchilar nazariy bilimni real hayotda tatbiq etishni o'rganadilar. Ular texnik vositalarni ushlab ko'rib, o'zlari bajarib ko'rishadi. Bu metod orqali o'quvchi mustaqil ishlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rganadi.

Ko'rgazmali metod

Slayd, rasm, video va real asboblarni yordamida qurilmalarni tushuntirish o'quvchilarni darsga jalb etadi. Bu metod, ayniqsa, tasavvuri past yoki vizual o'rganishga moyil o'quvchilar uchun foydalidir. Loyiha metodi . O'quvchilar kichik guruhlarda ishlash, biror qurilma haqida loyiha tayyorlaydilar. Bu metod o'quvchilarda axborot izlash, jamoaviy ishlash va o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim

Darsda hayotiy muammo qo'yiladi. Bunday yondashuv ularda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal qilish malakalarini shakllantiradi.

Interaktiv metodlar

Aqliy hujum, savol-javob, insert metodi kabi usullar orqali o'quvchilarning darsdagi ishtiroki kuchaytiriladi. O'quvchilar faollashadi, bir-biridan o'rganadilar va o'z bilimlarini mustahkamlab boradilar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish (AKT) Kompyuter, interaktiv doska, internet va virtual simulyatsiyalar darsda qo'llaniladi. Texnik vositalarning ishlash jarayonini onlayn kuzatish, testlarni onlayn yechish, 3D modellarni ko'rish o'quvchilarga yangi bilimlarni tez va oson o'zlashtirish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, texnologiya darslarida texnika va texnologiyalarni o'rgatish – zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir. U nafaqat o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni beradi, balki ularning tafakkurini rivojlantirib, ijodiy va mustaqil qaror qabul qilishiga zamin yaratadi. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'rgatishda faqat an'anaviy uslublar bilan cheklanmasdan, faol, interaktiv va amaliy yondashuvlarni tatbiq etish kerak. Har bir metod o'z o'rnida muhim bo'lib, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, bilimni mustahkamlaydi va ularni real hayotga tayyorlaydi. Shuning uchun texnologiya fanini zamonaviy metodlar asosida o'qitish – bugungi kunda eng dolzarb pedagogik yo'nalishlardan biridir.

References

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" Toshkent shahri 2020- yil 23- sentyabr O'ZRa 637.
2. Sh. S. Sharipov, O. A. Qo'ysinov va boshqalar Texnologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik. Toshkent. RTM, 2022-238 bet
3. Xakimov A., Nosirova Z., Nodir B. O'zbek xalq amaliy san'ati / O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2019. – 130 b
4. Razvodovskiy V., Opit issledovaniya goncharnogo i nekotorykh drugikh kustarnix promislov v Turkestanskom

kraye, T., 1916;

5. Razvodovskiy V., Opit issledonaniya goncharnogo i nekotorig drugix kustarnix promislov v Turkestanskom kraye, T., 1916
6. Mirzanazarova E. K probleme izucheniye istoricheskoy voyennoy odejdy Uzbekistana . Theoretical Applied Science, 2018.